

## Sirdaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025 yil yanvar-aprel oylari uchun

- I. Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Sirdaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025-yilning 1-may holatiga ko'ra, viloyatda 1155 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ishlab chiqarish sanoatida taqsimlanganda yuqori ulush 301 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 28,1 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 191 tasi (17,8 %) boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 82 tasi (7,7 %) kiyim ishlab chiqarishga, 79 tasi (7,4 %) tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarishga, 67 tasi (6,3 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni  
1-may holatiga ko'ra



## **II. Sirdaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 6563,4 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 92,1 % ni tashkil etdi.

|                          | <b>Hajmi,<br/>mlrd so'm</b> | <b>Fizik hajm<br/>indeksi, % da</b> |
|--------------------------|-----------------------------|-------------------------------------|
| <b>Sirdaryo viloyati</b> | <b>6563,4</b>               | <b>92,1</b>                         |
| Guliston sh.             | 462,9                       | 67,8                                |
| Shirin sh.               | 2122,1                      | 67,8                                |
| Yangiyer sh.             | 391,1                       | 116,5                               |
| Boyovut tumani           | 849,6                       | 113,4                               |
| Guliston tumani          | 215,0                       | 108,1                               |
| Mirzaobod tumani         | 104,4                       | 109,8                               |
| Oqoltin tumani           | 177,0                       | 113,9                               |
| Sardoba tumani           | 173,6                       | 112,6                               |
| Sayxunobod tumani        | 259,4                       | 108,1                               |
| Sirdaryo tumani          | 1119,6                      | 108,1                               |
| Xovos tumani             | 133,8                       | 109,2                               |

### **Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)


## **Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Shirin shahrida (109390,8 ming so'm), Sirdaryo tumanida (8024,1 ming so'm), Yangiyer shahrida (7941,5 ming so'm), o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (7037,2 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (90,4 %) ni tashkil etgan bo'lsa, Yangiyer shahrida (113,9 %), Boyovut tumanida (111,3 %), Sardoba tumanida (110,9 %), Mirzaobod tumanida (107,3 %), Xovos tumanida (107,3 %) qayd etilib, viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi  
yanvar-aprel oylarida



### Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-aprel oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 3985,9 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (60,7 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 34,0 mlrd so'm (0,5 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 2507,8 mlrd so'm (38,3 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 35,7 mlrd so'm (0,5 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi

2025-yilning yanvar-aprel oylarida

### **III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2025-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 26,1 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2024-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 91,3 % ga ko'paygan), 9,8 ming tonna kepak mahsulotlari (77,3 % ga ko'paygan), 233,9 ming litr 100 % spirt aroq mahsulotlari (73,4 % ga ko'paygan) hamda 1,6 ming tonna dori vositalari (79,1 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

| <b>Sanoat mahsulotlari</b>                                                                                      | <b>2023-yil yanvar-aprel*</b> | <b>2024-yil yanvar-aprel*</b> | <b>2025-yil yanvar-aprel</b> |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------|-------------------------------|------------------------------|
| Tarkibida alkaloidlar bo'lgan yoki bo'lmagan, lekin gormonlar yoki antibiotiklar bo'lmagan medikamentlar, tonna | <i>1440,0</i>                 | <i>930,6</i>                  | <i>1630,5</i>                |
| Boshqa plastmassalardan (etilen polimerlaridan tashqari) qoplar va sumkalar (jumladan konus shaklidagi), tonna  | <i>5900,0</i>                 | <i>3616,0</i>                 | <i>5343,0</i>                |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna                                                                       | <i>13,7</i>                   | <i>13,7</i>                   | <i>26,1</i>                  |
| Don ekinlarini qayta ishlashdan hosil bo'lgan kepak, chiqit va boshqa chiqindilar, ming tonna                   | <i>5,3</i>                    | <i>4,8</i>                    | <i>9,8</i>                   |
| Boshqa o'simlikdan yog' olishda hosil bo'lgan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar, tonna                       | <i>2418,0</i>                 | <i>17,3</i>                   | <i>2901,4</i>                |

*\* 2023-2024-yillarning yanvar-aprel oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**  
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

### Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 32,0 % (2024-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,9 %), to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 21,0 % (2024-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,9 %), rezina va plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 7,2 % ni tashkil etdi.



### Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 5,5 % ni (2024-yilning yanvar-aprel oylarida 5,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 3,1 % (2,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 29,4 % (18,9 %), quyi texnologiyali 62,0 % (73,4 %) ni tashkil etgan.

### Sirdaryo viloyatida yirik korxonalar tomonidan qop mahsulotlari ishlab chiqarish *yanvar-aprel oylarida*

Qop mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida 2025-yilning yanvar-aprel oylarida 1549 tonna narsa joylanadigan qoplar va paketlar (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 45,6 % ga oshdi), 5343 tonna boshqa plastmassalardan (etilen polimerlardan tashqari) qoplar va sumkalar (jumladan konus shaklidagi) (47,8 % ga ko'paydi) ishlab chiqarildi.

### Sirdaryo viloyatida yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan qoplar, tonnada *yanvar-aprel oylarida*





**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash  
sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab  
chiqarish hajmi**

2025-yilning yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 61,4 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 86,2 % ni tashkil etdi.

| <b>Sanoat<br/>mahsulotlari</b>                                                               | <b>2023-yil<br/>yanvar-aprel*</b> | <b>2024-yil<br/>yanvar-aprel*</b> | <b>2025-yil<br/>yanvar-aprel</b> |
|----------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------|-----------------------------------|----------------------------------|
| Jami ishlab chiqarilgan<br>elektrenergiya,<br>mln.kvt.s                                      | 6300,8                            | 5606,3                            | 7153,1                           |
| <i>shundan:</i>                                                                              |                                   |                                   |                                  |
| <i>yirik korxonalar<br/>tomonidan<br/>(hisobot ma'lumotlariga<br/>asosan)</i>                | 6300,8                            | 5606,3                            | 2833,1                           |
| <i>kichik tadbirkorlik<br/>subyektlari<br/>tomonidan (kuzatuv<br/>ma'lumotlariga asosan)</i> | 0,0                               | 0,0                               | 4320                             |
| Issiqlik energiyasi,<br>ming gkal                                                            | 45,1                              | 46,1                              | 47,5                             |

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlashda 24,4 % ga kamayish, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish 2,0 % ga ko'payish kuzatildi.

| Sanoat mahsulotlari                                                                               | 2023-yil yanvar-aprel* | 2024-yil yanvar-aprel* | 2025-yil yanvar-aprel |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------|------------------------|-----------------------|
| Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar mlrd so'm                           | 0,3                    | 28,7                   | 26,6                  |
| Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar mlrd so'm | 17,5                   | 7,3                    | 9,1                   |

\*2023-2024-yillarning yanvar-aprel oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

### IV. Kichik biznes subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2966,6 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 45,2 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-aprel oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 27,2 % ni tashkil etgan.



## V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Sanoat bu** – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

### Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

**Sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

### Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

**Fizik hajm indeksini hisoblash** deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

**Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi** asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

**B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**C** - Ishlab chiqarish sanoati

**D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

### Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheheh5446456>





---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**

Sanoat va energetika  
statistikasi boshqarmasi

**Ijrochi:**

Sh. Bakiyeva  
67 236-70-00 (2010)

**Манзил:**

